

TASDIQLAYMAN
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti moliya-iqtisodiyot ishlari
bo'yicha prorektori



S.Z.Toshmatov

TANLOV BO'YICHA TEXNIK HUJJATLAR

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining "Masofaviy ta'lim markazi" va "O'quv media markazi"ning ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida texnik jihozlar sotib olish bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlashni e'lon qiladi.

Xizmat nomi: Masofaviy ta'lim markazi" va "O'quv media markazi"ning ish faoliyatini takomillashtirish maqsadida texnik jihozlar sotib ishlari.

Tanlov o'tkazish shakli: elektron shaklda.

Shartnoma rasmiylashtirish tili: o'zbek tilida.

Xarid qilish valyutasi: so'm.

Moliyalashtirish manbasi: budjet mablag'lari.

Shartnomaning boshlang'ich bahosi: 237 700 000 (ikki yuz o'ttiz yetti million yetti yuz ming) so'm.

Tanlov ishtirokchilariga tanlash bo'yicha xarid qilish qoidalariga doir tushuntirishlar yuzasidan ishtirokchilar bilan aloqada bo'ladigan shaxs:

davlat xaridlari bo'yicha bosh mutaxassis – Mustafoyev Muslimbek,
tel: (94) 000 08 09.

Tanlov hujjatlarini qabul qiladigan hamda tanlov o'kaziladigan manzil:
e-tender.uzex.uz.

Takliflarni taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana:

maxsus axborot portaliga lot joylashtirilgan kundan boshlab 7 (yetti) kun davomida.

Buyurtmachining yuridik manzili:

Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi 108-A uy.

Tanlov hujjatlarini rasmiylashtirish talablari:

tanlov ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli;

tanlov hujjatlarida tuzatishlarga (matn, so'z va raqamlarni bo'yash) yo'l qo'yilmaydi, agarda hujjatlarda tuzatishlar aniqlansa, ushbu tanlov hujjati komissiya tomonidan chetlatiladi;

tanlash ishtirokchisi taqdim etayotgan ma'lumot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

Tanlovga taqdim etiladigan hujjatlar:

tashkilotning ushbu xizmatni taqdim etish huquqini tasdiqlovchi hujjat yoki sertifikat;

tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza;

soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarmi to‘lash bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi to‘g‘risida ma‘lumotnoma;

tashkilotning ro‘yhatga olinganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi (tashkilot rahbari tomonidan muxr va imzo bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim);

yetkazib beruvchi tashkilot xisobida ishni bajarish uchun yetarlicha mablag‘ mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (bank kafolat xati);

yetkazib beruvchi 2 yil mobaynida bajarilgan ishlar uchun kafolat berishi kerak, agar ko‘rsatilgan muddat ichida nosozlik holati aniqlansa yetkazib beruvchi hisobidan bartaraf etiladi.

tanlov ishtirokchilari o‘ziga nisbatan bankrotlik tartib-tamoyillari joriy etmaganligi, insofsiz ijrochilarning yagona reestirida kayd etilmaganligini tasdiqlovchi hujjat;

yetkazib beruvchining omborida ushbu tovarlar mavjudligini tasdiqlovchi ma‘lumotnoma;

Komissiya a‘zolari:

Bosh hisobchi



A. Amirov

Bosh muhandis



M. Nazarov


Korrupsiyaga qarshi kurashish

“komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi



M. Umurzoqov

Yuristkonsult



T. Tojibayev

Komissiya kotibi:

Davlat xaridlari bo‘yicha bosh mutaxassis



M. Mustafoyev